

## Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-avgust dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7412 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 151 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 261 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 23 876,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 108,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 002,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 950,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 922,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,6 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo

## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


2025- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 274 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 245 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi

17 327,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 16 593,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Marg'ilon shahar (7,4 m), Oltiariq (7,8 m) va Bag'dod (7,7 m), tumanlarida kuzatildi.

#### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




#### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- sentabr holatiga umumiyligi ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 921 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 916 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 598,2 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

|   |  |   |  |
|---|--|---|--|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Xizmatlar va savdo sohasi<br>statistikasi bo'limi | <b>Bo'lim boshlig'i:</b><br>Tel: +998732419768 | <b>Ijrochi:</b> N.Mahmudova<br>Tel: +998732419768 | <b>Manzil:</b> Farg'ona sh., Oq'yol<br>ko'chasi, 104-a |
|---|--|---|--|